

Ekologik muammolarni bartaraf etishning huquqiy asoslari

Bosimov Asilbek Bahodir o'g'li
Guliston davlat pedagogika instituti

Ekologiyada kuzatilayotgan holatlar hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonlar yillar davomida insonlarning tabiatga beparvolik bilan munosabatda bo'lganligi, daraxtlarning kesilishi, avtomobil, zavod va fabrikalardan chiqayotgan zaharli gazlar oqibatida atmosferadagi o'zgarishlar nafaqat insonlar, balki hayvonot olamiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat esa tabiatning ifloslanishi, havodagi zaharli moddalarning oshib borayotganligiga sabab bo'lmoqda. Shunday bo'lsada, respublikamiz hududidagi ba'zi bir masalalarni keltirib o'tish joiz:

- Yirik hududiy sanoat majmualari joylashgan tumanlarda, ya'ni Angren-Olmaliq-Chirchiqlarda, Farg'ona-Marg'ildonda, Navoiy va boshqa tumanlardagi tabiatni muhofaza qilish muommolari. Bu tumanlarda ijtimoiy-ekotizm holati yaxshi emas. Chunki, sanoat markazlarida chiqayotgan turli-xil gazlar va chiqindilar atrof-muhitni ekologik holatni buzilishiga olib kelmoqda.

- O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va qayta tiklash muammolari qo'riqxonalar va milliy bog'lar tarmog'ini kengaytirish kabi muommoli vaziyatlar bordir.

Bu vazifalarni bartaraf etish, uning yechimini topgan holda bunday holga qayta tushib qolmasligining chora-tadbirlarini ishlab chiqishi zarurdir. Bugungi kunda atrof-muhit holati bizda yaxshi emas ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi. Misol uchun: "The environmental Performance Index" saytining xabar berishicha, O'zbekiston dunyoning eng toza davlati reytingida 2022-yilda 180 davlat orasida 107-o'rinni egallagani bizdagi ekologik holatning ancha yomon ekanligini ko'rsatuvchi faktlardan biri bo'lsa, buni ko'rsatuvchi statistika "Dunyoning eng ifloslangan davlatlari" reytingida O'zbekiston 12-o'rinni egallagani va "Dunyoning eng ifloslangan shahari" reytingida esa kuchlli uchlikni band qilayotgani buning yorqin misoli emasmi? Bunday ko'rsatkichlardan keyin biz qanday qilib ekologik toza hudduda yashaymiz deya olamiz? Bu muommolardan tashqari ham butun dunyo miqyosidagi "Orol mummosi" ham bizning yurtimizda ekanligi bu juda ham achinarlidir. Ammo bizning yurtimizda bu muammolar yechimi izlanmayapti desak xato bo'ladi, albatta. Bu muammolar yuzasidan yurtimizda bir qancha islohot ishlarining ishlab chiqilayotganligi, bu muammolarni yechish yuzasidan ishlar amalga oshirilayotganligini ko'rsatadi. Bu masalani yechish yuzasidan qabul qilingan eng birinchi qadam 2023-yil 1-mayda qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-bo'lim XI bob "Fuqorolarning burchlari" bobining 62-moddasini olsak bo'ladi, unda quyidagi norma belgilab qo'yilgan "Fuqorolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburlirlar" [1]. Bu moddaning Konstitutsiyaga kiritilishining o'zi bu soha bo'yicha ishlarning poydevori desak bo'ladi. Bu poydevorning asoslaridan yana biri "O'zbekiston Ekologik partiyasi" deyish mumkin. 2018-yildan o'z faoliyatini rasman olib borayotgan bu partiya ekologik holatni yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqmoqda. Tabiatni asrashning bunday asoslari bizni quvontiradi, albatta. Shu o'rinda Prezidentimizning 2023-yil 31-maydagi 81-sonli farmoni asosida "Yashil makon" dasturi ishlab chiqildi. Bu loyihada davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar qimmatbaho navlarning kesilishiga moratoriy amal qiladi [2]. Bu moratoriy e'lon qilinishiga sabablardan biri deya havoning, ayniqsa, shaharlarda ifloslanib ketishi kuzatilganligi desak bo'ladi. Shuningdek, bu daraxtlar kesilishiga qarshi ishlar olib borilishiga qaramay, shu davr mobaynida 44 mingga yaqin shundan 9,5 mingga yaqin qimmatbaho daraxtlar noqonuniy kesilishi oqibatida davlatga 36 milliard so'mlik zarar yetkazilganini ko'rish mumkin. Bunday holatlar sonini kamaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi" 14-sonli PF ishlab chiqilishi va undan oldin ishlab chiqilgan shu masaladagi qonunlarning jazo choralarini yanada kuchaytirish ko'zda tutiladi. Bu farmon asosida Vazirlik Bosh prokuratura,

Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda 01.09.2023 ga qadar Vazirlar Mahkamasiga taqdim etilishi ko'zlangan hujjatlarda quyidagilar ilgari surilgan.

- Ekologik va atrof-muhitga zarar yetkazish, o'simlik va hayvonot dunyosi obyektlarini nobud qilish yoki ularga shikast yetkazish bilan bog'liq jinoyatlarni og'ir jinoyatlar toifasiga kiritish;

- Davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarini kesishga qo'yilgan morotoriy talablarini buzganlik ma'muriy jarimalar miqdorini 5 barobarga oshirish. Bunda noqoqonuniy kesilgan daraxt o'rniga kompensatsiyaviy daraxt ko'chatlarini aynan daraxt kesilgan o'ringa ekish majburiyatini yuklash hamda yurudik shaxslarga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining 100 barobaridan 300 barobarigacha bo'gan miqdorda moliyaviy jarimalar qo'llashni joriy etish [3]. Shu kabi bir nechta og'irlashtiruvchi normalar ishlab chiqilishi ko'zda tutiladi.

Bundan xulosa qilish mumkinki, tabiat qancha sof bo'lishi, hayvonot va daraxtlar olamiga, balki insonlar uchun ham qanchalar muhim ekani ko'rinib turibdi. Yurtimizda olib borilayotgan bu muommolarning yechimlari izlanayotgani quvonarli holat o'zi aslida. Ilgari surilgan "Yashil makon" dasturi to'g'risida "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi" raisi Narzullo Oblamurodovning "Yangi O'zbekiston" gazetasiga bergan intervyusida shunday ta'kidlaydi; "Mamlakatimiz bo'ylab "Yashil makon" umummilliy harakatini samarali amalga oshirish uchun "Dolzarb 40 kunlik" e'lon qilindi. Bu shunchaki nomiga o'tkaziladigan bir tadbir yoki aksiya emas. Bu – natijasi kelgusi yuz yilliklarga tatiydigan ezgu harakat, O'zbekistonning ertasi uchun qayg'urib qilinayotgan chin ma'nodagi xayrli tashabbus "- deya aytib o'tganining o'ziyoq xalqimizning bu sohaga jiddiy kirishganligini ko'rsatib o'tuvchi isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-y. –B.24.
2. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 31.05.2023. PF-81-son.
3. "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi" 14- sonli PF.25.01.2023.

OILADA EKOLOGIK HUQUQIY TARBIYA BERISHDA OTA-ONALAR VA JAMOATCHILIKNING MUHIM VAZIFALARI

*Burxonova Go'yoxon Gulomovna
Central Asian Medical University*

Ekologik ta'lim va tarbiya orqali kishilarda, jumladan, yoshlarda koinotdagi yagona hayot mavjud bo'lgan Yer sayyorasi haqidagi tasavvurlar, o'z yashash muhiti to'g'risidagi bilimlar, atrofimizdagi olam, tabiat va insonlarni o'zaro uzviy bog'langanlik haqidagi ilmiy-nazariy dunyoqarashlar, o'z o'lkasi va Vatanining ekologik tizimlari (ekotizimlari), ularning paydo bo'lishi, evolyutsion rivojlanishi, antropogen o'zgarishi, makon va maydon bo'yicha tarqalish qonuniyatlari, undan kelib chiqadigan hususiyatlari, boyliklari, holati, kelajak istiqbollari, milliy, regional va global miqyosdagi tabiat va jamiyat munosabatlari, amaliy ekologik ko'nikma va malakalar, Yer yuzasi atrof-muhitini muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat majmularini qayta tiklashga oid muammolarni anglash va ularning yechimini topishga doir to'g'ri qarorlarni qabul qilish kompetensiyasi, ularni tanlagan kasblarga qarab ekologik ta'lim va tarbiya shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

Hozirgi kunda zamon talabi asosida oilada ekologik huquqiy tarbiya berish, yangi innovatsiya va axborot texnologiyalarni qo'llash kelajakda yoshlarga ekologik muammolarni imkon qadar ijobiy hal etilishiga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisida so'zlagan nutqida, «Ma'lumki, har qaysi mamlakat, har qaysi xalq hayotida Shaxs – Oila – Jamiyat - Davlat degan tushuncha va